
Farg`onaga Hindistondan mehmonlar keldi

Bugun 11 aprel kuni Farg`ona viloyati hokimligining investitsiyalar, innovatsiyalar, xususiylashtirilgan korxonalariga ko`maklashish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda turizmni rivojlantirish masalalari kompleksi tashabbusi bilan Farg`ona shahridagi «Yuldashev nomli MDM» klinikasiga Hindistonning «ARTEMIS» klinikasining onkologi, professor doktor Rakush Chopra hamda ortoped, doktor Sanjey Sehravat tashrif buyurdi. Tashrif davomida malakali xorijiy shifokorlar tomonidan 40 nafar bemorlar ko`rikdan o`tkazildi va ularga tashxislar qo`yilib, davolanish bo`yicha tegishli ko`rsatmalar berildi.

Soat 14:00da klinikaning majlislar zalida professor doktor Rakush Chopra ishtirokida «Saraton kasalligining bugungi ko`rinishi, zamonaviy muolajalari hamda ularni oldini olish» mavzusida seminar-konferensiya bo`lib o`tdi. Konferensiyada 50 nafardan ortiq viloyatimizning onkolog shifokorlari qatnashdilar.

Tashrif davomida viloyat hokimligi hamda Hindistonning Druzhba Business Solutions PVT Ltd. kompaniyalari o`rtasida Farg`onada tibbiyot va stomatologiya klinikalarini tashkil etish, shuningdek, viloyat tibbiyot xodimlarini Hindistonga tajriba almashish uchun jo`natish bo`yicha hamkorlik memorandumi imzolandi. Tadbirda viloyat hokimining o`rinbosari M. Abdurahmonov ishtirok etdi.

2018-04-11 21:25:12